



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№1

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғойбназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МУНДАРИЖА :

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мурод Мухаммедович Мухаммедов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Иқтисодий тафаккур – иқтисодий тараққиётнинг муҳим омили	5
Muxitdin Abduxamidovich Aynakulov Klaster doirasida xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasini tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari va shakllari	16
Barchinoy Shonazar qizi Mavlanova Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari	21
Бахтияржон Бултурбаевич Муллабаев Худудлар ривожланишидаги номуносибликни камайтиришда хорижий тажрибалардан фойдаланиш	24
Шаҳобиддин Зиядуллаевич Ўрозов Марказий Осиёда иккинчи ренессансга асос солишда Амир Темур ва теурийларнинг хизматлари	31
Nodir Djumanazarovich Khusanov O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishda strategiya va mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirish yo‘llari	35
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Shamsiddin Kiyamiddinovich Yuldashev, Lola Nazarovna Khalikova The role of human capital in forming the digital economy	40
Mavluda Azamatovna Shodmonova Raqamlashtirishning logistika samaradorligiga ta’siri	42
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Ruziboy Normaxmatov, Jasur Kaxarov, Akram G‘afurov Olma mevasi – biologik faol moddalarning muhim manbaidir.	45
Отабек Джурабаевич Джурабаев Определение направлений оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	48
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Присбек Иватов Аҳолига хизмат кўрсатишда деҳқон бозори фаолиятини ривожлантириш ва тартиблаштириш	56
Фарход Анварович Сафаров Мослашувчан бошқарув тамойиллари асосида хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини таъминлаш	60
Baxtiyor Nusratovich Nosirov Mintaqaning uy-joy kommunal xizmatlar sohasida aloqa va axborotlashtirishni rivojlantirishni modellashtirish	64
Акмал Анвар ўғли Рахматов Мижозларга савдо хизматлари кўрсатишни такомиллаштиришнинг замонавий йўналишлари	70
Umid Xolboyevich Xolboyev Xizmatlar sohasi raqobatbardoshligini oshirishning nazariy masalalari	75
To‘lqin Ismatulla o‘g‘li Yahyoyev Qurilish xizmatlarini iqtisodiy tahlil obyekti sifatida xalqaro standartlar asosida tasniflash	77

Muxitdin Abduxamidovich Aynakulov – Jizzax politexnika instituti, “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

KLASTER DOIRASIDA XIZMAT KO‘RSATISH KOOPERATSIYASINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI VA SHAKLLARI

Annotatsiya: Maqolada klaster doirasida xizmat ko‘rsatish sohasidagi hamkorlikni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari va shakllariga asosiy jarayon bag‘ishlangan bo‘lib, unda xo‘jalik yuritish klasterlarida boshqaruv strategiyalari va innovatsiyalarga e‘tibor qaratiladi. Asosiy e‘tibor ishtirokchilar o‘rtasida aloqalarni muvofiqlashtirish va almashish, hamkorlik uchun moslashuvchan boshqaruv tuzilmalarini ishlab chiqish, xizmatlarda innovatsiyalar va texnologik takomillashtirishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Qisqasi maqolada o‘zgaruvchan iqtisodiy muhitda umumiy muvaffaqiyatga erishish uchun klasterlar ichidagi hamkorlik muhimligi ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Kooperatsiya, klaster, strategiya, Yangi O‘zbekiston, raqobat, xizmat ko‘rsatish, innovatsiya, ko‘p ukladli iqtisodiyot, mulkiy fond, subpudrat, franchayzing.

Kirish. O‘zbekistonda aholi bandligini ta‘minlash, Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan asosiy sanaladi. Ushbu yo‘nalishlarning yo‘lboshchisi, bir tomondan, turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarni tashkil etishni rag‘batlantirish, yakka tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish jarayonlari bilan, ikkinchi tomondan, xo‘jalik yuritishning bozor mexanizmlarini keng joriy etish va raqobat muhitini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lsa, eng asosiy tashkil qilingan tashkiliy-huquqiy shakllardagi xizmat ko‘rsatish subyektlarining o‘zaro bir butunlikda, hamkorlikda, ya‘ni klaster doirasida faoliyat yuritishlarini tashkil etish hisoblanadi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra, xo‘jalik klasteri doirasidagi xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasi umumiy maqsadlarga erishish (tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish) uchun bir to‘plam doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy birlashuvini yoki o‘zaro hamkorlik qilishini o‘zida namoyon qiladi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra, “xizmat ko‘rsatish klasterlari” atamasi esa umumiy resurslar, texnologiyalar va bozorlar bilan birlashgan xizmat ko‘rsatish sohasidagi o‘zaro bog‘langan xo‘jalik subyektlari guruhini bildiradi. Ushbu klasterga xizmat ko‘rsatish firmalari, materiallar yetkazib beruvchilar, asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchilar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari va ta‘lim muassasalari kabi turli korxonalar va tashkilot, shuningdek, infratuzilma vakillari kiradi.

Xizmat ko‘rsatish klasterining asosiy maqsadlari quyidagicha:

- klaster turli ishtirokchilarning raqobatbardoshligi, innovatsiyalari va mahsuldorligini oshirish uchun hamkorlikni rag‘batlantiradi;

- hamkorlik klaster ishtirokchilariga yangi texnologiyalar, materiallar va qurilish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi;

- klaster ta‘minot zanjirlarini maqbullashtirish, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi;

- klaster doirasidagi ta‘lim muassasalari xizmat ko‘rsatish sohasi uchun malakali mutaxassislarni yetishtirishga hissa qo‘shadi.

Xullas, xizmat ko‘rsatish klasterlari umumiy geografik va iqtisodiy manfaatlar bilan birlashtirilgan o‘zaro bog‘langan xo‘jalik subyektlari tizimidir. Klasterlarning asosiy xususiyatlari hududiy konsentratsiya, infratuzilmani almashish va ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirni o‘z ichiga oladi, bu umumiy maqsadlar, sheriklar, yetkazib beruvchilar va iste‘molchilar mavjudligini anglatadi.

Turli xildagi xizmatlar ko‘rsatish uchun korxonalar va tashkilotlar ko‘plab turli xildagi materiallar, detallar va hokazolardan foydalanadi, shu sababli ular xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi, yordamchi materiallar yetkazib beruvchi va xizmatlar ko‘rsatuvchi boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan o‘zaro hamkorlik qilishi va klaster doirasida xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasini rivojlantirishi zarur. Zamonaviy yuqori saviyali xizmatlarni ko‘rsatish uchun yirik korxonalar ko‘pincha o‘nlab,

ba'zan esa yuzlab mayda korxonalar bilan o'zaro hamkorlik qiladi va klaster doirasida xizmat ko'rsatish kooperatsiyasiga kirishadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha ko'plab yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar aholi bandligini ta'minlash bo'yicha kasanachilikni tavsiya etsalar [Айнакулов М.А., Абдухамидов Э.М. *Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спец выпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50*], ba'zilar kichik sanoat zonalarini tashkil etish orqali kishilarda motivatsion yo'nalishlarni shakllantirish [Айнакулов М.А. *“Qurilishda zamonaviy menejer va uning kreativ ta'limi” // “Me'morchilik va qurilish muammolari” ilmiy-texnik jurnali. Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti. 2020. №2 (2-qism) 164-bet*] va shu asosida ularda yangi xo'jalik yuritish subyektini tashkil qilish g'oyasini ilgari suradilar. Ba'zi manbalarda [B.B. Berkinov *“Uy xo'jaligi iqtisodiyoti”. – O'quv qo'llanma. Toshkent.: 2014*] uy xo'jaligini yuritishning aholi bandligini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati bo'yicha va unda xo'jalik yuritish turlari bo'yicha eksperimental tavsiyalar keltirilgan bo'lsa, ba'zi uy xo'jaliklarida aynan xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha [Muxitdinov A.B. *Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va samaradorligini oshirishda motivatsiyaning roli. “Xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion va raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish muammolari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallar to'plami (V-qism) (2021-yil 19-20-fevral). Samarqand -2021.*] ixtisoslashtirilgan oilaviy pudratni yo'lga qo'yish masalalari ko'tarilgan. Oila iqtisodini rivojlantirish muammosi azaldan ko'plab mahalliy [O'lmasov A. *Oila iqtisodi. – Toshkent.: Mehnat, 1998.*] va xorijiy olimlarning diqqat e'tiborida bo'lgan va ular tomonidan inson kapitalini shakllantirish va ajratiladigan investitsiyalar va o'z navbatida ularning iqtisodiy samaradorligi hamisha ham dolzarb bo'lib kelgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur jarayonga bag'ishlab o'tkazilgan tadqiqotlarda, asosan, taqqoslash usullaridan, shuningdek, ekspert tahlil, SWOT tahlil va bu borada olib borilgan ilmiy xorijiy manbalarni sharhlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xizmat ko'rsatish klasterining paydo bo'lishi va uni iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xizmat ko'rsatish kooperatsiyasining rivojlanishi, qator umumiy va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan obyektiv sabablar bilan shartlanadi.

Ko'rsatiladigan xizmatlarning turlariga qarab xo'jalik yuritish klasterlarining quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1. Yakuniy xizmatni ko'rsatuvchi mustaqil klasterlar. Bunday klasterlar xizmatlarning yangi turlarini ko'rsatuvchi korxonalar bilan xo'jalik kooperatsiyasiga kirishishi mumkin.

2. Birlashmalar yoki kombinatlar tarkibidagi (mayda xizmatlarni amalga oshiruvchi) klasterlar. Bunday klasterlar boshqa xo'jalik subyektlari tomonidan yirik xizmat turlarining bir qismini amalga oshiruvchilari sifatida ular bilan xo'jalik yuritish kooperatsiyasiga kirishishi mumkin [1].

3. Xizmat ko'rsatuvchi kichik klasterlar tarmog'i (sho'ba, qo'shma yoki mustaqil klasterlar).

4. Innovatsion turdagi (shu jumladan, iste'mol xizmatlari tavsifidagi) klasterlar.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish klasterlari, asosan, quyidagi shakllarda faoliyat ko'rsatadi:

1. Tashkil etish tashabbuskori davlat xo'jalik organlari va alohida kichik klasterlar.

2. Tashkil etgan tashkilotga nisbatan sho'ba klasterlar.

3. Shartnoma va ijara shakllari.

4. Korxonada xo'jalik mehnat shirkati shakli (XMSHSh).

Klaster doirasidagi xizmat ko'rsatish kooperatsiyasi uchun quyidagi shart-sharoitlar ta'minlanishi zarur:


1. Xizmat ko'rsatish kooperatsiyasida kamida ikki tomon ishtirok etadi;

2. Har bir tomon ikkinchi tomon uchun qimmatli (zaruriy) bo'lishi mumkin bo'lgan moddiy qiymatga ega bo'lgan buyumga ega bo'lishi kerak [2];

3. Har bir tomon o'z xizmatlarining kommunikatsiyasini amalga oshirishga qodir bo'lishi lozim;

4. Har bir tomon boshqa tomonning takliflarini qabul qilishda yoki rad etishda mutloq erkin bo‘lishi zarur;

5. Har bir tomon boshqa tomon bilan hamkorlik qilishning maqsadga muvofiqligiga ishonch hosil qilishi kerak.



1-rasm. Xo‘jalik yuritish klasteri doirasida xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasini tashkil etish chizmasi¹

Yuqorida keltirilgan shartlar xo‘jalik yuritish klasteri doirasidagi xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasining faqat potensial imkoniyatlarini yaratadi. Agarkelishuvga erishilsa, xulosa

¹ muallif tomonidan ishlab chiqilgan

qilish mumkinki, xizmat ko'rsatish kooperatsiyasi natijasida uning barcha ishtirokchilari foyda olishadi (yoki hech bo'lmaganda, zarar ko'rmaydi), chunki ularning har biri xizmatlar ko'rsatishda o'zaro hamkorlik qilish bo'yicha taklifni qabul qilish yoki rad etishni o'zi erkin hal qiladi.

Xo'jalik yuritish klasterlari ishtirokchilarining turli korxonalar bilan xizmat ko'rsatish kooperatsiyasi bevosita va bilvosita xususiyatga ega bo'lishi mumkin (1-rasm). Bunda kichik klasterlarning turli xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan o'zaro hamkorligi va xizmat ko'rsatish kooperatsiyasi quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Subpudrat:

a) Yirik kompaniya bir qator kichik korxonalar bilan nisbatan barqaror va uzoq muddatli shartnomalar tuzadi va ularga yirik xizmatlarning ma'lum turlari yoki ayrim qismlarini amalga oshirishni topshiradi. Kichik korxonalar yirik korxonaga texnologik zanjirining ishtirokchisiga aylanadi, bunda ularning yuridik va moliyaviy mustaqilligi saqlanib qolish bilan xo'jalik yuritish klasteri ko'rinishini vujudga keltiradi.

b) “Zanjirli tizimlar” - asosan savdo va xizmat ko'rsatish sohalari uchun tavsiflidir. Bu tizimlar tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilishning turli, ham yirik, ham mayda sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi bir xildagi muassasalar qatorini o'zida namoyon qiladi. Mijozlar va xaridorlar bilan operatsiyalar katta hududlarni qamrab oladi, lekin bunda ma'muriy, ta'minot, moliyaviy, reklama va zanjir doirasida korxonaga xizmat ko'rsatuvchi boshqa operatsiyalarning klasterlashuvi yuz beradi [3].

2. “Dilerlar” yordamida mahsulotni sotish (mutloq “franchayzing” shartnomalari tizimi). Bunday shartnomalar chog'ida klaster doirasidagi yirik korxonaga kichik korxonalar o'z tovarlarini shartnomada qat'iy kelishilgan shartlarda sotish huquqini beradi. Yirik kompaniyalarning “venchurli sarmoya” asosida tashkil etilgan kichik korxonalar bilan klaster doirasidagi o'zaro hamkorligini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu shakl AQSH da g'oyat keng tarqalgan [4].

Xo'jalik klasteri doirasida xizmat ko'rsatish kooperatsiyasi amaliyotda aniq ifodalangan chegaraga ega emas, uning darajasi yuzaga keladigan iste'mol bozorining holatidan kelib chiqib belgilanadi. Xo'jalik klasteri doirasida xizmat ko'rsatish kooperatsiyasining rivojlanishi mayda xizmat turlarini amalga oshirishdan tortib, ushbu xizmatlarni iste'molchilarga yetkazishgacha bo'lgan butun jarayonning tarkibiy qismlarini qamrab olishi mumkin.

Xo'jalik klasteri doirasida xizmat ko'rsatish kooperatsiyasi shakllari va turlarining xilma-xilligi, muayyan shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, manfaatdor tomonlarning ham bevosita, ham bilvosita o'zaro hamkorligining uyg'unlashuvini nazarda tutadi. Bunda qabul qilingan o'zaro hamkorlik tizimi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

1. **Xizmat ko'rsatishning muvozanatlashuvi**, bu bir tomondan, klaster doirasiga hamkorlar sifatida cheklanmagan miqdorda va faoliyat sohasi turlicha bo'lgan hamkor xo'jalik yurituvchilarni jalb etish imkonini beradi va, ikkinchi tomondan, kichik klasterlar ham bir vaqtning o'zida qator turli korxonaga va tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarida ishtirok etishi mumkin.

2. O'zaro hamkorlik qiluvchi xo'jalik subyektlarining o'zini o'zi boshqarishi, bu ular faoliyatiga uchinchi tomonlarning, shu jumladan, bozor qoidalariga mos ravishda davlatning aralashuvidan chegaralanishni nazarda tutadi.

Xulosa va takliflar. Amaliyotda, muayyan shart-sharoitlarga qarab, ko'pincha xizmat ko'rsatish kooperatsiyasining aralash turlari ham paydo bo'lishi mumkin.

Muayyan sxemani tanlash va xizmat ko'rsatish kooperatsiyasining zaruriyligi qator konseptual qoidalarga asoslanishi kerak, shu jumladan:

1. Muayyan xizmat turlarini ko'rsatishning texnologik murakkabligi va resurs iste'moli. Bunda ushbu murakkablikning o'sishi va resurslar iste'molining oshishi xizmat ko'rsatish kooperatsiyasining rivojlanishini jadallashtirishni va uning asosida xo'jalik klasteri doirasidagi xizmat ko'rsatishning ixtisoslashuvini chuqurlashtirishni talab qiladi;

2. Xom ashyo resurslarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, bu texnologik jihatdan murakkab xizmat turlarini joriy etish zarurligini shartlaydi, u ham, o'z navbatida, xo'jalik klasteri

doirasida xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasining jadallashuvini va chuqurlashuvini talab qiladi;

3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar xizmat ko‘rsatish-moliyaviy faoliyatining muhim natijasi sifatida - mehnat unumdorligini yanada oshirish. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning klaster doirasidagi xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasi quyidagilar hisobidan xizmat ko‘rsatish samaradorligining o‘shishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

- xizmat ko‘rsatishni boshqarishni yaxshilash [4];

- bir maromda xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, hamda samarasiz va yordamchi xizmat ko‘rsatishlar, omborxonalar, resurslar zaxiralari va tayyor mahsulotni saqlash uchun xizmat ko‘rsatishga oid bo‘lmagan xarajatlarini qisqartirish;

- xizmat ko‘rsatishni ixtisoslashtirish va jamlash.

Yuqorida bayon etilganlarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash mumkin, ayniqsa iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari negizida kichik tadbirkorlikni uning yirik korxonalar bilan klaster doirasida xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasi asosida rivojlantirish xizmat ko‘rsatishning o‘shishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Respublikada xo‘jalik yuritish klasteri doirasidagi xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasi jarayonlarini jadallashtirish maqsadida, ayniqsa mamlakat iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlarida turli xizmat turlari yuzasidan xo‘jalik yurituvchi subyektlari bilan xo‘jalik yuritish klasterini vujudga keltiruvchi o‘zaro hamkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dasturni yaratish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Айнакулов М.А., Абдухамидов Э.М. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50.

2. Muxitdinov A.B. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va samaradorligini oshirishda motivatsiyaning roli. “Xizmat ko‘rsatish sohasini innovatsion va raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish muammolari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami (V qism) (2021-yil 19-20-fevral). Samarqand - 2021.

3. B.B. Berkinov “Uy xo‘jaligi iqtisodiyoti”. – O‘quv qo‘llanma. Toshkent.: 2014

4. Aynaqulov M.A. “Qurilishda zamonaviy menejer va uning kreativ ta’limi” // “Me’morchilik va qurilish muammolari” ilmiy-texnik jurnali. Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti. 2020. №2 (2-qism) 164-bet.

<p style="text-align: center;">М.Айнакулов</p> <p>Принципы и формы организации и развития кооперации обслуживания в рамках кластера</p>	<p style="text-align: center;">М.Aynakulov</p> <p>Principles and forms of organization and development of service cooperation within the cluster</p>
<p>Аннотация: в статье рассматриваются принципы и формы организации и развития сотрудничества в сфере оказания услуг внутри кластера, уделяя особое внимание стратегиям управления и инновациям в бизнес-кластерах. Основное внимание уделяется координации и обмену информацией между участниками, разработке гибких структур управления для сотрудничества, а также поощрению инноваций в сфере услуг и технологическому совершенствованию. Также, в ней подчеркивается важность сотрудничества внутри кластеров для достижения общего успеха в меняющейся экономической среде.</p> <p>Ключевые слова: кооперация, кластер, стратегия, Новый Узбекистан, конкуренция, сервис, инновации, многосистемная экономика, фонд имущества, субподряд, франчайзинг.</p>	<p>Abstract: the article examines the principles and forms of organizing and developing cooperation in the provision of services within a cluster, paying special attention to management strategies and innovation in business clusters. The focus is on coordination and information exchange among participants, developing flexible governance structures for collaboration, and encouraging service innovation and technological improvement. Also, it highlights the importance of collaboration within clusters to achieve shared success in a changing economic environment.</p> <p>Keywords: cooperation, cluster, strategy, New Uzbekistan, competition, service, innovation, multi-system economy, property fund, subcontracting, franchising.</p>

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

06.03.2024 йилда теришга берилди. 29.03.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0024А/30.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.